

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

I.I.Rustamova	
Abdulla Qahhorning "Sarob" romanida detallar funksiyasi va dinamikasi	770
G.H.Oxunova	
Badiiy obraz borliqni anglash omili sifatida (Isajon Sulton hikoyalari misolida)	773
G.M.Oripova, F.A.Rahmataliyeva	
Xokku she'riy janrida inson va tabiat tasviri	778
G.Muhammadjonova	
Erkin Vohidovning hajviy asarlarida davr muammolari	782
Sh.D.Maxmidjonov	
Badiiy nutq tiplari va qahramon ruhiy olami talqini (Tohir Malikning asarlari misolida)	787
M.M.Xamidov	
O'zbek adabiyotida tarixiy obraz va uning ifoda usuli	791
O.A.Ahmadjonova, Sh.D.Ma'murova	
Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasida til o'rganish masalasi va milliy til qadri	795
X.A.Abdulxamidova	
Isajon Sulton romanlarida inson xronotop sifatida	799
J.B.Sayidolimov	
"Makorim ul-axloq" agiografik asar namunasi	803
G.M.Oripova, G.G'.Axmadaliyeva	
Said Ahmadning hikoyanavislik mahorati ("Qorako'z majnun" hikoyasi misolida)	808
I.S.Mannopov, B.D.Rajavaliyev	
"Devoni hikmat"da ishq va oshiqlik talqini	812
S.F.Komilova	
Xalq dostonlarida do'stlik obrazi talqini	817
O.A.Ahmadjonova	
Asqad Muxtorning ayollar psixologiyasini yoritishda uslubiy o'ziga xosligi	820
A.A.Abduraxmonov	
O'zbek lirikasida nurning poetik funksiyasi	824
X.A.Abdulxamidova, G.Sh.Shodiyeva	
"Kutilgan kun" hikoyasida badiiy psixologizm	828

TILSHUNOSLIK

S.N.Fazildinova	
"Farhod va Shirin" dostoni nasriy bayonidagi tasvir vositalarning ifodalanishi	831
N.K.Ergasheva	
Goals and objectives of the training practice	835
O.A.Axmedova	
Nofilologik oliy o'quv yurtlarida ingliz tili terminalogiyasini o'qitishning nazariy asoslari	838
Sh.B.Karimova	
O'zbek tilida kvantitativlikning lug'aviy ifodasi	841
A.U.Akhmedova	
Challenges of using only traditional methods in teaching foreign languages	844
A.U.Akhmedova	
The effects of contemporary teaching methods in teaching foreign languages	850
D.Ganieva, F.Khamidov	
The comparative analysis of internet discourse in Uzbek, Russian and English languages	855
Ш.Аскарова	
Сущность языковой интерференции при изучении Немецкого языка	859
S.Kh.Azimova	
The stages of development of the theory of intercultural pragmatics in linguistics	863
E.B.Yagyaeva	
Talabalar mustaqil ta'limining mohiyati, tuzilmasi va vazifasi	867
E.B.Yagyaeva	
Ingliz tili o'qitish jarayonida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar	870



UO'K: 821.512.133.09-2

ABDULLA QAHHORNING "SAROB" ROMANIDA DETALLAR FUNKSIYASI VA DINAMIKASI**ФУНКЦИЯ И ДИНАМИКА ДЕТАЛЕЙ В РОМАНЕ АБДУЛЛЫ КАХХОРА "САРОБ"****FUNCTION AND DYNAMICS OF DETAILS IN ABDULLA QAHHOR'S NOVEL "SAROB"****Rustamova Ibodat Ikramovna** 

Farg'ona davlat universiteti, adabiyotshunoslik kafedrası dotsenti, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan so'z sa'atkori Abdulla Qahhorning "Sarob" romanidagi detallar funksiyasi va dinamikasi haqida so'z yuritiladi. Mazkur nazariy muammo "Sarob" romani misolida tahlil qilinadi va ilmiy-nazariy xulosalar chiqariladi.

Annotatsiya

В данной статье рассказывается о деталях, его функции и динамике в романе "Мираж" Абдуллы Каххора, мастера слова, занявшего место в узбекской литературе. На основе художественного текста анализируется и делаются научно-теоретические выводы.

Abstract

This article talks about the detailed function and dynamics in the novel "Mirage" by Abdullah Kakhhor, a watchmaker of words who has won a place in Uzbek literature. This theoretical problem is analyzed and scientific and theoretical conclusions are drawn using the example of the novel "Mirage".

Kalit so'zlar: detal, detallar funksionalligi, dinamika, mahorat, muallif, muallif konsepsiyasi, mahorat, sahna, qahramon, badiiy talqin, mahorat, konflikt, voqealar rivoji.

Ключевые слова: деталь, функциональность детали, динамика, мастерство, автор, авторская концепция, мастерство, сцена, герой, художественность, интерпретация, мастерство, конфликт, развитие событий.

Key words: detail, detail functionality, dynamics, skill, author, author's concept, skill, scene, character, artistic interpretation, skill, conflict, development of events.

KIRISH

Abdulla Qahhorning "Sarob" romani mana bir necha yildirki kitobxon va tadqiqotchilar o'rtasida qizg'in munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Bunga sabab muallif asar matnida badiiy detallardan mahorat bilan foydalana olganligidir. Romanda keltirilgan detallar obrazlar xarakterining o'ziga xos shakllanishiga xizmat qiladi. Ularning funksionallik darajasi esa badiiy matnda kengayib boradi. Adib tomonidan qo'llanilgan detallarda obraz dunyoqarashi, atrofdagi voqea-hodisalarga bo'lgan munosabati, obrazning ruhiy holati, muallifning estetik qarashlari o'z ifodasini topadi. "Sarob" romanida detallar funksionalligi asarning barcha sathlarida o'ziga xos ravishda talqin etiladi. Obraz tashqi qiyofasi, harakat va holatlar ifodasi va muallif qarashlarini kitobxonga yetkazishda detallar qator vazifalar bajaradi. Roman syujetida asar tilining badiiyligi va ta'sirchanligi detallar vositasida amalga oshiriladi. Qo'llanilgan detallar kitobxonga obrazli tasavvurlar va emotsional zavq bag'ishlaydi. Ayniqsa, portret tasviriga doir detallar obrazlar xarakterini mukammal va original talqin etilishiga asos bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Adabiyotshunoslikda A.Qahhor asarlaridagi detallar M.Sultonovning "Abdulla Qahhor uslubi", M.Qo'shjonovning "Abdulla Qahhor mahorati" risolalarida o'rganilgan. M.Qo'shjonov "Abdulla Qahhor mahorati" risolasida adibning asarlaridagi detal masalasiga to'xtalib, Chexovning "Kulfat", A.Qahhorning "Anor" hikoyalarini bir-biriga qiyoslab, har ikki asardagi fojiiylik haqida fikr yuritadi. "Anor"da muallif qo'llagan anor detali ushbu hikoyaning o'ziga xosligini ta'minlaganini

ADABIYOTSHUNOSLIK

ta'kidlab, "Kulfat" hikoyasi muallifi umuman, hech bir detaldan foydalanmaganini e'tirof etadi. A.Qahhor esa anor detaliga juda katta badiiy funksiya yuklaganini alohida ta'kidlaydi.

NATIJALAR

"Adabiyotshunoslikda yozuvchi qo'llagan detallarning u yoki bu funksiyalari haqida ko'p gapiriladi-yu, ularning eng muhim xususiyati, qimmat, emotsional qudrati haqida kam gapiriladi, ba'zan bu tomoni mutlaqo e'tiborsiz qoldiriladi. Abdulla Qahhor asarlaridagi detallar g'oyat kuchli emotsional qudratga ega, ular shu zahotning o'zida kitobxonga yetib boradi va unda kuchli reaksiya uyg'otadi. Go'yo avtor detallarning ichiga portlovchi zaryadlarni joylashtirib qo'ygandek, kitobxon unga yaqin kelishi bilan portlash yuz beradi". [1.63.]

Adib o'z asarlarida detallardan shunchaki tasviriy vosita sifatida foydalanmaydi. U qo'llagan detallarda obraz xarakteri, ularning bir-biriga bo'lgan munosabati, muallif konsepsiyasi kabilar o'z ifodasini topadi.

MUHOKAMA

"Detailar nihoyatda xilma-xil. Detal "avtorniki ham, qahramonniki" ham bo'lishi mumkin. Detal nutqda, peyzaj, portret va boshqa tasviriy vositalarda bo'lishi ham mumkin. Lekin ularning g'oyasi albatta, asar g'oyasi bilan va personajlarni xarakterlashdagi xizmati bilan belgilanadi", [1.111] deb ta'kidlaydi M.Sultonova. Biz esa detallarning funksionalligi, badiiy asarlardagi dinamikasi masalasiga e'tiborimizni qaratamiz. Asar tili badiiy vositalar bilan qanchalik boyitilgan bo'lsa, undagi ayrim kamchiliklar sezilmaydi. Bu haqda K.Fedin quyidagilarni ta'kidlaydi: "Biz kompozitsiyasi mukammal bo'lmagan, hatto kompozitsiyasi yomon bo'lgan yaxshi adabiy asarlarni bilamiz. Lekin tili yomon yaxshi asarlarning bo'lishi mumkin emas. Asarning barcha materiali, yozuvchining butun tajribasi tilda va til vositasida ifodalanadi" [2. 126.]

Shu ma'noda ijodiy ishning eng qiyin qismi til ustida ishlashdir. Bu bilan kompozitsiyasi mukammal bo'lmagan asarlar har doim ham yaxshi asar bo'laveradi, degan fikrdan yiroqmiz. Badiiy asar tili esa o'zining mukammalligi va jozibasini bilan kitobxonga emotsional kayfiyatlar beradi. Asar tilining shakllanishida asosiy va eng muhim komponentlardan biri detal hisoblanadi. Ularning badiiy detal darajasiga ko'tarib, badiiy-estetik qimmatini ko'rsata bilish yozuvchidan juda katta mahorat talab etadi. Shuning uchun detal masalasi badiiy tahlil jarayonida asosiy masalalardan biri bo'lib kelgan va bo'lib qoladi ham. Bugungi kunda bu nazariy masala asosiy ilmiy muammolardan biri sifatida o'rganilmoqda. Adib asarlari badiiyatining mukammallikka erishishida u qo'llagan detallarning juda katta o'rnini bor.

"Sarob" romanida detailar funksionalligi asarning barcha sathlarida o'ziga xos ravishda talqin etiladi. Obraz tashqi qiyofasi, harakat va holatlar ifodasi va muallif qarashlarini kitobxonga yetkazishda detailar qator vazifa bajaradi. Detal obraz xarakterini ochish uchun xizmat qilishdan tashqari, muallif niyatini amalga oshirishda ham muhim sanaladi Roman badiiyatini belgilashda qo'llanilgan detailar funksionalligi muhim e'tiborga molikdir. Detailar tasviriy vosita sifatida ishtirok etish bilan birgalikda, bevosita dinamikka ham erishadi. Fikrimizni asoslash uchun asar matniga murojaat etamiz: "U bog' eshigining bo'sag'asiga qadam qo'yganida "bubuligo'yo" kaltakesakday chaqqonlik bilan uning yonidan o'tdi. Saidiy to orqasiga qarab gap so'raguncha, eshikni taq etib yopib uyga kirib ketdi".

[3.123.] Muallif kampir obraziga nisbatan ikki salbiy xususiyatni detailar yordamida ifodalaydi. Kaltakesak ko'rinishidagi sovuqlik va xunuklik salbiy o'ttenkasi bevosita obrazning harakat va holatlariga ko'chadi. Kaltakesak detaliga nisbatan qo'llanilgan o'xshatishning eng xarakterlisi Muxtorxon obraziga nisbatan qo'llaniladi. Bundan tashqari, kampirga nisbatan bubuliguyo so'zining aks ma'nosini qo'llab, vaysaqiligiga ishora qilinadi. Salbiy xususiyatlar roman syujeti davomida rivojlantirib, uni perifraza darajasiga ko'taradi. Detal vositasida salbiy munosabatlar kuchaytiriladi, muallif niyati amalga oshiriladi. Uning pastkashligini, inson qadr-qimmatini bir buyumchalik ko'rmasligi qo'llanilgan quyidagi detallarda yanada yaqqol ko'rinadi: "Bubuligo'yo"ning ko'zi ag'anab yotgan sopol obdastaga tushdi. Obdastaning jo'mragi singan edi. U jahli chiqib obdastani joyiga qo'ydi-da, indamasdan qaytib ketdi va osh suzar ekan, do'ng'illar edi: "Xudo ko'tarsin, shabko'r, o'limtik!". [124.]

Obdastaning singan jumragi sabab uyiga najot so'rab kelgan kuyovining opasiga kurakda turmaydigan so'zlarni aytib, o'zini pastkash va mehrsiz ekanligini ko'rsatadi. Romanda Yoqubjonning Saidiyga nisbatan qo'llagan quyidagi detalida ham detailar funksionalligining

kuzatamiz. Qo'llanilgan detallar har ikki obrazning bir-biriga bo'lgan munosabati ko'rsatishdan tashqari, roman drammatizmini oshiradi. Muallif asar drammatizmi va konfliktini yanada kuchaytirish maqsadida dialogdan foydalanadi. Raviy bayoni syujetda muallif niyatini amalga oshirish uchun to'xtatiladi, obrazlar o'rtasidagi dialogga o'tildi.

– Siz qo'ng'izsiz, – dedi Yoqubjon bir kuni, idoradan hamma ketib, Saidiy bilan yolg'iz qolganda.

– Qanaqa qo'ng'iz deng!

– Xayr, qanaqa qo'ng'iz? – dedi Saidiy.

– Otning tezagini yaxshi ko'radigan qo'ng'iz. Otning tezagini yumalatib uyasiga olib kirishga harakat qiladi, ammo hamma vaqt uyasining og'ziga sig'maydigan tezakka yopishadi. Mehnatni qila-qila, oqibat, uyasining eshigini tezak bilan berkitib qo'yib, o'zini -o'zi qamaydi" . [3.123.]

Ushbu matnda keltirilgan "Otning tezagini yaxshi ko'radigan qo'ng'iz, ammo hamma vaqt uyasining og'ziga sig'maydigan tezakka yopishadi" jumllaridagi qo'ng'iz detali keyingi jumlar bilan to'ldirilib, detalning badiiy matndagi funksiyasi yanada kuchaytiriladi. Ko'rinadiki, detalning emotsional qudrati dialoglarda to'laqonli ochiladi. A.Qahhor dialoglardan shunchaki foydalanmaydi, syujetning eng taranglashgan nuqtasida dialoglarga murojaat etib, ularga qator badiiy-estetik funksiya yuklaydi. Raviyning tasvir bayoni aynan shu o'rinda dialoglar darajasida o'quvchiga ta'sir etmasligi aniq. Buni yaxshi anglagan muallif yuqoridagi dialogni matnga kiritib, detal vositasida asar drammatizmini rivojlantirishga erishadi. Oqibatda detal tufayli roman asosiy konfliktiga xizmat qiluvchi qo'shimcha konflikt iplari taranglashadi. Topib aytilgan ta'sirchan jumlar adibning so'z qo'llashdagi o'ziga xos san'atkorligining bir ko'rinishidir. Saidiy ham bo'sh kelmasidan: "Men tezak yumalatadigan bo'lsam, avval sizni yumalatar edim", – deb Yoqubjonga nisbatan tezak detalini qo'llab, o'z javobini beradi. Saidiy qo'llagan tezak detalining badiiy-estetik ta'siri qo'ng'iz detaliga nisbatan salbiy jihatdan ancha baland. Yoqubjon Saidiy otning tezagini yaxshi ko'radigan qo'ng'izga o'xshatsa, u Yoqubjonni xuddi o'sha tezakning o'ziga teng qiladi [3.174-175.]

XULOSA

Bizga ma'lumki, detallar tarixiy va milliy xarakterga ega bo'ladi. Detallardan foydalanish yozuvchi mahorati va ijodiy individualligiga bog'liq hodisadir. Detalning badiiy matnni tashkil etishda, yozuvchi ijodiy uslubini belgilashda ham o'z o'rnini bor. Badiiy asarda qo'llanilgan detallar ta'sirchan va badiiy jihatdan mukammal chiqishida muallif mahorati asosiy rol o'ynaydi. Detalning asar syujetida o'z o'rnida ishlata bilish har bir yozuvchining ijodiy tafakkuri bilan bog'liq hodisa sanaladi. Detallardan foydalanish jarayonida har bir xalqning detalga bo'lgan tarixiy qarash va munosabatlari inobatga olinadi. A.Qahhor o'z ijodida ham bunday munosabat kuzatiladi, yozuvchi o'z asarlarida detallardan unumli va o'rinli foydalangan. Har qanday holatda ham detal muallif niyatini amalga oshirishga xizmat qiladi. Ulardan foydalanish chegaralanmaydi, qay darajada, qay tarzda foydalanish muallif ixtiyorida bo'ladi.

"Srob" romanidagi detallar o'zining funksionalligi va dinamikligi bilan muhimlik kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Қўшжонов М, Норматов У. Маҳорат сирлари. –Тошкент: Бадий адабиёт, 1968.
2. Султонова М. Абдулла Қаҳҳор услуби. –Тошкент: Фан, 1967.
3. Абдулла Қаҳҳор. Асарлар. Беш жилдлик. Биринчи жилд. –Тошкент: Фафур Сим 205